

HUDUDLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA INVESTISIYALAR O'RNI

Umarova Go'zal Sabirovna

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:19.08.2025

Revised: 20.08.2025

Accepted:21.08.2025

KALIT SO'ZLAR:

*investitsiya, hudud,
moliyaviy barqarorlik,
samara, samaradorlik..*

Mamlakat miqyosida mintaqalarning barqaror iqtisodiy rivojlanishi investsiya faoliyati va uning jozibadorligiga bog'liq. Davlatning investitsiya siyosati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim o'rin tutadi va miqyosdagi farqlarni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Ilmiy tadqiqotlar va amaliyot shuni ko'rsatadiki, investitsiyalarni samarali boshqarish uchun mintaqaviy yondashuv va kompleks mexanizmlar joriy etilishi zarur. Shuningdek, davlat va mahalliy hokimiyat organlarining roli oshirilib, investitsiya loyihalarini amalga oshirish va monitoring qilish tizimlari takomillashtirilishi kerak. Ushbu tadqiqot mamlakat iqtisodiyotida investitsiya jarayonlarini boshqarishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishga qaratilgan.

Mamlakatimiz mintaqalarini barqaror rivojlanishini ta'minlash, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida keng qamrovli tadbirlarni muntazam ravishda amalga oshirilib borishini taqozo etadi. O'z navbatida, mintaqalarning barqaror rivojlanishini ta'minlashdagi muhim jarayonlardan biri investitsiya faoliyati, muhiti, salohiyati va jozibadorligi hisoblanadi. Ushbu jarayonlarni ob'ektiv zaruriyati va o'ziga xos xususiyatlari mintaqalar iqtisodiyotining barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlashdagi rolini yanada oshirish uchun investitsiyalarga bo'lgan talabi va taklifi o'rtasidagi mutanosiblik, investitsiyalardan foydalanish darajasi va samaradorligi, investitsiya faolligi, pirovardida esa investitsion

jozibadorlikni nazariy va amaliy jihatdan tahlil etish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi mintaqalaridagi investitsion jozibadorligining sezilarli darajada turlichaligi, mamlakat iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyati hisoblangan holda bugungi kunning asosiy muammolaridan biri bo'lmoqda. Mamlakat mintaqalaridagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajalarining turlichaligi hamda davlatning samarali investitsiya siyosatini shakllantirish zaruriyatlari ushbu sohada nazariy va amaliy tadqiqotlarni olib borish zaruriyatni keltirib chiqarmoqda.

Shu o'rinda Abduraxmonov, Axmedov, Sodiqov va boshqa (2005) bir qator o'zbek olimlarining ilmiy izlanishlarini aytib o'tish maqsadga muvofiqdir. Ushbu olimlarning ilmiy izlanishlarida mintaqaviy iqtisodiyotning mavjud nazariyalari har tomonlama chuqur tahlil qilingan bo'lib, mintaqaviy iqtisodiy siyosatni amalga oshirishning dunyo tajribasi umumlashtirilgan, mintaqaviy rivojlanishning turli shakllari va mexanizmlari ko'rib chiqilgan. Markaziy va mahalliy darajalarda mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi xususiyatlariga, ularni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari va dastaklariga, O'zbekiston sharoitida turli mintaqaviy rivojlanish nazariyalarini qo'llash imkoniyatlariga bag'ishlangan tadqiqotlar olib borilgan.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida davlat investitsiya siyosatini shakllantirish va amalga oshirish mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi istiqbollarini belgilashda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Davlat investitsiya siyosati davlat moliyaviy siyosatining ajralmas bir qismi hisoblangan holda o'zida mamlakatdagi investitsiya jarayonlarini faollashtirish va belgilangan investitsion parametrlarga erishishga yo'naltirilgan o'zaro aloqador kompleks chora-tadbirlarni aks ettiradi.

Har qanday mamlakatning iqtisodiyotida va uning bugungi kunda hamda istiqbolda ham barqaror rivojlanishida investitsiya jarayonlari muhim ahamiyat kasb etadi. U o'zida turli investitsion faoliyat ishtirokchilarining mamlakat ishlab chiqarish salohiyatini, uning tarmoqlarini, mintaqalarni, alohida tashkilotlarni, shuningdek ijtimoiy-madaniy sohani, ekologik va harbiy xavfsizlikni ta'minlovchi tabiatni muhofaza qilish va mudofaa yo'nalishlaridagi ob'ektlarni rivojlantirish masalalarini hal etishga yo'naltirilgan umumiy harakatlarini aks ettiradi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida davlat investitsiya siyosatining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- jahon bozorida qulay konyunkturaning saqlanishi uchun keng miqyosda ko'maklashish;
- foiz stavkalarini iqtisodiyotning real sektoridagi investitsiyalarning tegishli samaradorligiga mos keluvchi darajagacha pasaytirish;

- bozor sub'ektlarining investitsion imkoniyatlarini kengaytirishga yo'naltirilgan soliq islohotlarini o'tkazish, shuningdek amortizatsiya siyosatini takomillashtirish;
- "samarali mulkdorlik" masalalarini hal etgan holda tashkilotlarning investitsion jozibadorliklarini oshirish;
- investorlar huquqlarini himoya qilishning qonuniy-huquqiy asoslarini mustahkamlash asosida investitsion xavf-xatarlarni pasaytirishning tashkiliy-huquqiy omillarini shakllantirish;
- mamlakat mintaqalarining investitsion jozibadorligi darajalari o'rtasidagi farqlarni qisqartirish;
- byudjetdan ajratiladigan investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, ulardan maqsadli va samarali foydalanishni davlat tomonidan nazorat qilishni kuchaytirish.

Davlat investitsiya siyosati respublika, viloyatlar va tarmoqlar miqyosida shakllantiriladi va amalga oshiriladi. Investitsiyalarni boshqarishning yagona tizimida tizimli chora-tadbirlardan iborat bo'lgan, alohida mintaqalar darajasida amalga oshiriladigan, investitsiya resurslarini safarbar qilish va ulardan mintaqalarning manfaatlaridan kelib chiqqan holda yuqori samarali foydalanish yo'nalishlarini aniqlash imkoniyatini beruvchi mintaqaviy investitsiya siyosati muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, O'rta va uzoq muddatli istiqbolida barqaror yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashning asosiy omili faqatgina xususiy investitsiyalarning yuqori o'sish sur'atlarini qo'llab-quvvatlash uchun shart-sharoitlar yaratish hisoblanadi. Bunda, davlat tegishli makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy siyosat chora-tadibrlarini qabul qilish orqali investitsion tashabbuslarni chegaralovchi mavjud to'sqinliklarni bartaraf etishi va qulay shart-sharoitlar yaratishi lozim.

Quyidagilar mintaqalarda investitsiya faoliyatlarini boshqarishning samarali dastaklari hisoblanadi:

- maqsadli-dasturlar usulidan foydalangan holda investitsiya siyosatini ishlab chiqish;
- investitsion resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishni rag'batlantiruvchi meyoriy-huquqiy bazani shakllantirish va takomillashtirish;
- soliq imtiyozlarini berish, tarif va foiz stavkalarini optimallashtirish, shuningdek asosiy kapitalga investitsiyalar kiritishda imtiyozli investitsiya kreditlarini taqdim etish;
- mintaqalarda amalga oshirilishi mo'ljallanayotgan investitsiya loyihalari to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini shakllantirish va rivojlantirish;

- investitsiyalarni sug'urtalash va kafolatlash mexanizmlarini shakllantirish va rivojlantirish;
- mahalliy va mintaqaviy taraqqiyot jamg'armalarini tashkil etish;
- xo'jalik yuritishning barcha bosqichlarida investitsiya resurslaridan maqsadli foydalanish uchun javobgarlikni oshirish va nazoratni kuchaytirish.

Rivojlangan davlatlarda so'nggi o'n yillik davomida davlat investitsiya siyosati mintaqaviy hokimiyat organlarining roli va javobgarligini oshirishga yo'naltirilgan yangi boshqaruv tizimiga asoslangan holda iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratildi. Bunda, mintaqalarni rejalashtirish va alohida zonalarga ajratishda, ekologik siyosat va investitsiya dasturlarini boshqarishda asosiy vazifa mintaqaviy hokimiyatlarga beriladi. Aynan, ular tomonidan mintaqaviy dasturlarning ijtimoiy jihatlarini ishlab chiqiladi, mintaqalarning demografik istiqbollari tuziladi (ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan birgalikda), yangi ish joylarini tashkil etish, zaruriy ijtimoiy va bozor infratuzilma ob'ektlarini qurish rejalari ishlab chiqiladi, shuningdek pudratchilar, loyihachilar, investorlar va hamkorlarni jalb qilish ishlari amalga oshiriladi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida investitsiya faoliyatlarini davlat tomonidan tartibga solishning turli usullaridan foydalaniladi: qonunlar va qonun osti meyoriy hujjatlarini qabul qilish orqali; davlat investitsiyalarini bevosita boshqarish yordamida; manzilli investitsiya dasturlarini ishlab chiqarish va amalga oshirish orqali; davlat faoliyatini maxsus tartibga solish orqali; fiskal siyosat, investitsiya faoliyatida davlatning ishtirok etishi, erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish kabi iqtisodiy usullar yordami da va boshqalar.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kundan boshlab, tub iqtisodiy, ijtimoiy, institutsional va ma'muriy islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Islohotlarning natijasi o'laroq iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar ro'y bermoqda, barqaror iqtisodiy o'sishga erishilmoqda, mulk davlat tasarrufidan chiqarilib xususiy mulkchilikning o'rnini mustahkamlanmoqda, erkin raqobat muhiti shakllanmoqda, tadbirkorlar va ishbilarmonlarga qulay imkoniyatlar yaratilmoqda, bozor sharoitida raqobatlasha oladigan xo'jalik yuritish shakllari tashkil etilib rivojlantirilmoqda, aholining turmush darajasi yildan-yilga yaxshilanib daromadlari ortib bormoqda. Bir so'z bilan aytganda, makroiqtisodiy barqarorlikka erishilmoqda. Bunday sharoitda yetarli darajadagi sifatli ma'lumotlar bilan ta'minlashning yangi uslublarini amaliyotga joriy etish lozimdir. Ayniqsa, ham respublika ham mintaqalar miqyosida davlat investitsiya siyosatini shakllantirishda mintaqalarning investitsion jozibadorligini kompleks baholash muhim ahamiyat kasb etadi.


Mintaqalarning investitsion jozibadorligini baholashdagi mavjud uslubiyotlarni taqqoslash va ulardan foydalanish natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, olingan ijobiy natijalar bilan bir qatorda ushbu uslubiy ishlanmalarning deyarli barchasida ma'lum bir chegaralanishlar mavjuddir. Natijada, mintaqalarning investitsion jozibadorligini baholashda yuqori darajadagi aniq va ishonchli ma'lumotlarni olish imkoniyatlari cheklanmoqda.

Investitsiya jarayonlarini bashorat qilish va istiqbol ko'rsatkichlarini ishlab chiqishdagi tajribalarning yetishmasligi ham bilvosita mintaqalarning investitsion jozibadorligini baholash masalalari borasida ilmiy va amaliy ishlanmalarning yetarli emasligini ko'rsatmoqda. Shuni hisobga olish lozimki, investitsiya masalalari sezilarli darajada murakkab jarayon bo'lib, uni baholashda bir qator omillar va tendensiyalarni ko'p mezonli taqqoslama baholash usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ya'ni, ilmiy asoslangan va amaliyotda sinab ko'rilgan yondashuv va usullardan foydalanish lozim.

Tadqiqotlar davomida mamlakat iqtisodiyotining barqaror va samarali rivojlanishi kabi sharoitlar investitsiya jarayonlarining asosiy omillari ekanligi aniqlandi. Bundan kelib chiqqan holda mintaqalarda investitsiya jarayonlarining rivojlanishini boshqarishning nazariy-uslubiy tamoyillari aniqlandi.

Quyida keltirilgan 1-rasmdan ko'rinib turibdiki, investitsion jozibadorlik investitsiya jarayonlarining asosiy tarkibiy bo'g'ini bo'lmoqda, shuning uchun ijtimoiy-iqtisodiy tizimning investitsion jozibadorligini aniqlash investitsiya jarayonlarini boshqarishning asosiy dastaklaridan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy tizimning investitsiya resurslariga bo'lgan talabi kapital oqimi bilan maksimal darajada ta'minlangandagina investitsiya jarayonlarini boshqarish samarali hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan investitsiya jarayonlarini boshqarishga quyidagi ikki jihatdan yondashish maqsadga muvofiqdir: birinchidan, aynan ko'rib chiqilayotgan tizim komponentlarining yig'indisi sifatida; ikkinchidan, turli darajadagi bo'g'inlarning tabaqalanishi nuqtai nazaridan – mamlakat, mintaqalar, tarmoqlar va korxonalar darajalari bo'yicha.



1-rasm. Investitsion jarayonlarning tarkibiy tizimi

Manba: muallif ishlanmasi

Investitsion jarayonlarni samarali boshqarish tizimi ochiq tashkiliy tizim bo'lib (tashqi takroriy aloqaning mavjudligi) quyidagilarni o'z ichiga oladi: boshqaruvchi (boshqaruv sub'ekti) va boshqariluvchi (boshqaruv ob'ekti) quyi tizimlar, o'zaro aloqador faoliyat elementlari (atrof-muhit). Atrof-muhit o'zida boshqaruv tizimiga kirmaydigan barcha elementlarni qamrab oladi. Xususan, davlat bevosita va bilvosita davlat tomonidan tartibga solish usullarining barcha mexanizmlaridan foydalangan holda o'z siyosatining asosiy tamoyillari tizimi orqali ijtimoiy-iqtisodiy tizimning boshqaruv organlarini qo'llab-quvvatlash ishlarini amalga oshiradi.

Shuning bilan birga, davlat o'zining iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va boshqa maqsadlarini ham amalga oshiradi. Maqsadli-dasturiy boshqaruvni amalga oshirish uchun davlat boshqaruvi va qonunchilik organlari tashkiliy-huquqiy muhitni shakllantiradi, investitsion

jarayonlarni boshqarish uchun kafolatlar, tamoyillar va uslublarni belgilaydi. Investitsion strategiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun rejalar, dasturlar, siyosatlar va amaliy chora-tadbirlar tizimi talab etiladi, shuningdek investitsiya strategiyasini amalga oshirishning mutanosib tashkiliy mexanizmi ham lozimdir.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, investitsion jarayonlarni samarali boshqarish uchun tegishli ijtimoiy-iqtisodiy tizim investitsion jozibadorligining tahlili va investitsion resurslarning kutilayotgan oqimini belgilash talab etiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning investitsion jozibadorligini baholashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- investitsion muammolardan kelib chiqqan holda mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilash;
- mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va investitsiya oqimlariga investitsion jozibadorlikning ta'sirini aniqlash;
- mintaqalarning investitsion jozibadorligini tartibga solish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish;
- mintaqalarning investitsion jozibadorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash;
- investitsion jozibadorlikning doimiy monitoringini yo'lga qo'yish.

Investitsion jarayonlarni boshqarish samaradorligi mezonlarini belgilash ham asosiy uslubiy masalalardan hisoblanadi. Bizningcha, mintaqada iqtisodiy o'sishni maksimallashtirish samardorlik mezonini sifatida tanlab olinsa maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yefimova O.V. Finansoviy analiz: sovremenniy instrumentariy dlya prinyatiya ekonomicheskix resheniy. /usheb. / O.V. Yefimova. - 5-ye izd., ispr. - M.: Omega-L, 2014. - 348s.
2. Kazakova N.A. Finansoviy analiz. /usheb i praktikum / N.A. Kazakova. - M.: Yurayt, 2014. - 539 s.
3. Brealey R.A., Mers S.S. Principles of corporate finance. McGraw-Hill, 2003.
4. Kumri Nomozova. Organizational and economic modeling of the system of interregional industrial cooperation as a control object. Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems. 2023. – p. 333-343.
5. Kumri Isoyevna Nomozova. Problems of security of economic and ecological systems in the countries of the central Asian Region. International Conference on Next Generation Wired/Wireless Networking. 2023. – p. 177-195.

6. Kumri Nomozova. Evolyusiya teorii predprinimatelskogo riska v rabotax vidayushixsya ushenix proshlogo. Peredovaya ekonomika i pedagogisheskie texnologii. 2025. – s. 581-587.
7. Nomozova Qumri Isoevna. Tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq risklarni sug‘urta vositasida boshqarish usullari. Straxovoy rinok Uzbekistana. 2024. - 4-7 b.
8. Kumri Nomozova. Mikrostraxovanie kak innovatsionniy mexanizm upravleniya riskami malogo biznesa. Ekonomisheskoe razvitie i analiz, 2024. - s. 338-345.
9. Qumri Nomozova. Biznes risklarini sug‘urtalash: zamonaviy sharoitlarda asosiy turlari va ularning xususiyatlari. Moliya va bank ishi. 2024. – 44-48 b.
10. Qumri Nomozova. Moliyaviy hisobotlar va ularni tuzish va auditorlik tekshiruvdan o ‘tkazishning uslubiy jihatlarini rivojlantirish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2024.
11. Qumri Nomozova. O‘zbekistonda tadbirkorlik tavakkalshiliklari sug‘urtasini rivojlantirish istiqbollari. Straxovoy rinok Uzbekistana. 2024. – 7-10 b.
12. B.E.Toshmurodova Korporativ moliya strategiyasi– T.: “Iqtisod- moliya”, 2013. – 128 b.
13. Vahobov A.V., Malikov T.S. MoliY. Darslik. – T.: “Sharq”, 2010. – 804 b.
14. Van Xorn D.K. Osnovi upravleniya finansami/ D.K.Van Xorn; Per.s angl.; Gl. red. serii Y.V.Sokolov. -M: Finansi i statistika, 1996. - 800 s: il.
15. Publis Finanse: A Sontemporary Applisation of Theory to Polisy, Tenth Edition. David N. Hyman. 2010, 2011 South-Western, Sengage Learning
16. Malikov T., Jalilov P. Byudjet-soliq siyosati. – T.: “Akademnashr”, 2011. – 472 b.